



ISLOM MOLIYASINI O‘ZBEKISTONDA JORIY ETISH TAMOYILLARI

Abdullayev Abdujabbor

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Andijon davlat texnika instituti “Axborot texnologiyalari” kafedrası professori

abdullaevabduzabbor08@gmail.com

Chirmashev Abdujalil

Andijon davlat texnika instituti, Muhandislik iqtisodiyoti va

boshqaruv fakulteti, Moliya va moliyaviy texnologiyalar

yo‘nalishi 1-bosqich talabasi e-mail: abdujalilchirmashev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Islom moliyasining nazariy asoslari, uning asosiy tamoyillari hamda O‘zbekiston moliya tizimiga joriy etishning dolzarbligi yoritilgan. Islom moliyasi foiz (ribo)ga asoslanmagan, adolat va risklarni teng taqsimlash tamoyillariga tayanuvchi muqobil moliyaviy tizim sifatida iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Maqolada O‘zbekistonda Islom moliya institutlarini rivojlantirish uchun yaratilayotgan huquqiy, institutsional va infratuzilmaviy shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Xususan, “Islomiy banklar to‘g‘risida”gi qonun loyihasi, Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlik, shuningdek, Toshkent xalqaro islom moliya markazini tashkil etish tashabbuslari o‘rganilgan. Shuningdek, Islom moliyasining asosiy mahsulotlari - mudaraba, mushoraka, ijara, murabaha va sukuk kabi vositalarni amaliyotda tatbiq etish imkoniyatlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Islom moliyasi, ribo, mudaraba, mushoraka, murabaha, sukuk, Islomiy bank, moliya tizimi.

Kirish.

So‘nggi yillarda dunyo moliya tizimida Islom moliyasi alohida e‘tiborga sazovor yo‘nalish sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu tizimning o‘ziga xos jihati



shundaki, u an'anaviy bank amaliyotidan farqli ravishda foiz (ribo)ga asoslanmagan, balki sheriklik, savdo va aktivlarga asoslangan moliyaviy operatsiyalar orqali iqtisodiy muvozanatni ta'minlaydi. Islom moliyasi nafaqat diniy e'tiqod tamoyillariga, balki iqtisodiy adolat, risklarni teng taqsimlash, moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga qaratilgan tizim sifatida e'tirof etiladi. Bugungi kunda Islom moliya bozori hajmi 4 trillion AQSh dollaridan oshib, 80 dan ortiq mamlakatlarda faoliyat yuritmoqda. Ushbu tizim eng ko'p rivojlangan davlatlar qatoriga Malayziya, Saudiya Arabistoni, BAA, Indoneziya, Turkiya va Bahrayn kiradi.

O'zbekiston uchun Islom moliyasini joriy etish masalasi so'nggi yillarda dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Mamlakatda moliya sektorini diversifikatsiya qilish, investitsion muhitni yaxshilash va aholining moliyaviy inklyuziyasini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. 2022-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Islom moliya tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. Shu asosda Moliya vazirligi, Markaziy bank va Islom taraqqiyot banki hamkorligida normativ-huquqiy asoslar ishlab chiqilmoqda. Xususan, "Islomiy moliya to'g'risida"gi qonun loyihasi tayyorlanib, 2025-yilda qabul qilinishi kutilmoqda. Bu qonun Islomiy banklar, Islomiy sug'urta (takaful) kompaniyalari va sukuk (Islomiy obligatsiyalar) bozorini huquqiy jihatdan tartibga solishga zamin yaratadi.

O'zbekistonda Islom moliyasi institutlarini joriy etishning asosiy maqsadi – iqtisodiyotda adolatli va barqaror moliyaviy muhit yaratish, aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishdir. Mamlakatda aholining muayyan qismi diniy e'tiqod sababli an'anaviy bank xizmatlaridan foydalanmaydi, bu esa ularning iqtisodiy faoliyatini cheklab qo'yadi. Shu bois Islom moliyasi joriy etilishi orqali moliyaviy inklyuziya darajasi sezilarli oshadi. Misol uchun, Malayziya va Indoneziya tajribasiga ko'ra, Islomiy banklar faoliyati



kengaytirilganidan so‘ng aholining moliya sektoridagi ishtiroki 15-20 foizga oshgan.

O‘zbekiston Islom taraqqiyot banki bilan 2023-yilda 2 milliard AQSh dollaridan ortiq qiymatdagi hamkorlik dasturini amalga oshirmoqda. Ushbu dastur doirasida infratuzilma loyihalari, qishloq xo‘jaligi, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishda Islom moliyasi tamoyillari tatbiq etilmoqda. Shuningdek, Toshkent shahrida “O‘zbekiston xalqaro Islom moliya markazi”ni tashkil etish rejalashtirilgan bo‘lib, u mamlakatda Islomiy moliyaviy mahsulotlar bozorini rivojlantirish, mutaxassislar tayyorlash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim platformaga aylanishi kutilmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Islom moliyasi sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu tizimning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini har tomonlama o‘rganishga qaratilgan. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar faollashgani kuzatilmoqda. Jumladan, Kurbonova M. o‘z tadqiqotida Islom moliyasining jahon moliyaviy tizimidagi o‘rnini SWOT tahlil yondashuvi asosida tahlil qilgan [1]. Muallif kuchli tomon sifatida Islom moliyasining ijtimoiy adolat, risklarni teng taqsimlash va real aktivlarga asoslanishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, zaif jihatlar qatorida xalqaro standartlarning yetarlicha yagona emasligi va ayrim davlatlarda huquqiy bazaning sustligini qayd etadi. Unga ko‘ra, Islom moliyasi global moliya tizimiga barqarorlik keltiruvchi omil sifatida ko‘rilmoqda.

Islomovna T. D. tomonidan olib borilgan tadqiqot esa bevosita O‘zbekistonda Islom moliyasining rivojlanish jarayoniga bag‘ishlangan [2]. Muallif mamlakatda Islomiy bank amaliyotlarini joriy etish bo‘yicha dastlabki tashabbuslar, jumladan, Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlik va qonunchilik asoslarini yaratish yo‘lidagi ishlarni tahlil qiladi. U O‘zbekistonda Islom moliyasining rivojlanishiga to‘siq



bo'layotgan omillar sifatida kadrlar salohiyatining pastligi, aholining moliyaviy savodxonlik darajasi va infratuzilmaning to'liq shakllanmaganligini ta'kidlaydi.

Ahmadjonov O. esa Islomiy moliya tizimini O'zbekistonda qo'llash istiqbollarini tahlil qilgan [3]. Muallif fikricha, Islom moliyasi mamlakat iqtisodiyotiga nafaqat yangi investitsiyalarni jalb etadi, balki aholining diniy e'tiqodlariga mos moliyaviy xizmatlarni taqdim etish orqali moliyaviy inklyuziyani oshiradi. U, shuningdek, Islom moliyasi orqali kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish, qishloq xo'jaligi sektorini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy loyihalarni barqaror manbalar orqali moliyalash imkoniyatlarini ko'rsatib o'tadi.

Turdaliyev R. o'z tadqiqotida bozor iqtisodiyoti sharoitida Islom moliyasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini o'rgangan [4]. U Islom moliya tizimining asosiy tamoyillari – ribo (foiz)dan voz kechish, spekulativ operatsiyalardan saqlanish va riskni teng taqsimlash orqali iqtisodiyotda real sektorni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganini qayd etadi. Tadqiqotda shuningdek, Islom moliyasi global miqyosda moliyaviy inqirozlar ta'sirini yumshatishda muhim rol o'ynashi mumkinligi ta'kidlanadi.

Ro'ziboyeva Z. K. esa Islomda omonat, foiz va bank tizimiga loyiha boshqaruvi nuqtayi nazaridan yondashadi [5]. U Islomiy moliya vositalarining har biri – mudaraba, mushoraka, murabaha va sukuk – o'zining iqtisodiy mohiyati bilan shariat talablariga muvofiq ekanligini ilmiy asosda tahlil qilgan. Muallif fikricha, ushbu vositalarni O'zbekistonda amaliyotga joriy etish uchun shariat kengashlari, muvofqlik komissiyalari va malakali mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, P.G'anijonov va Egamberdiyev Sh. tomonidan olib borilgan tadqiqotda globallashtirish sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida strategik tarmoqlarning o'rnini tahlil etiladi [6]. Ular fikricha, raqamli iqtisodiyot va Islomiy moliya tizimining uyg'unligi O'zbekiston uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi. Shu nuqtada Anora K. va Egamberdiyev Sh. tomonidan yozilgan "Innovative Economy and Digital Transformation" nomli



maqolada ham innovatsion yondashuvlar orqali iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish zarurligi qayd etilgan [7]. Ularning tadqiqoti Islom moliyasini raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish istiqbollarini yoritib beradi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlilidan ko‘rinadiki, Islom moliyasi nafaqat muqobil moliya tizimi sifatida, balki iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, investitsiyalar oqimini oshirish va ijtimoiy adolatni mustahkamlashda ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda Islom moliyasini joriy etish uchun huquqiy, tashkiliy va axborot bazasini yanada rivojlantirish zarur. Shu orqali Islom moliyasi O‘zbekiston moliya tizimining ajralmas qismi sifatida shakllanadi va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyani tezlashtiradi.

Metodologiya.

Mazkur ilmiy ishning metodologik asosi nazariy tahlil, ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv usullariga tayangan holda amalga oshirildi. Izlanishlarning asosiy maqsadi - O‘zbekistonda islom moliyasi tizimini joriy etishning nazariy tamoyillarini aniqlash, mavjud imkoniyat va cheklovlarni o‘rganish hamda xalqaro tajribalar asosida konseptual takliflar ishlab chiqishdan iborat. Shu bois, ish davomida empirik ma‘lumotlar yoki amaliy kuzatuvlardan foydalanilmay, asosan nazariy manbalar, mavjud ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda xalqaro moliya institutlari hisobotlariga tayangan holda tahlil olib borildi.

Maqolada foydalanilgan manbalar qatoriga M.Kurbonova, T. D. Islomovna, O.Ahmadjonov, R.Turdaliyev kabi olimlarning ishlarida ilgari surilgan ilmiy xulosalar kiritildi. Ushbu manbalar islom moliyasi tushunchasi, uning jahon moliya tizimidagi o‘rni, shuningdek, O‘zbekistonda uni joriy etish istiqbollari haqida nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Xususan, M.Kurbonova tomonidan keltirilgan SWOT-tahlil modeli yordamida islom moliyasi tizimining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda xavf omillari nazariy jihatdan baholandi.



Metodologiya jihatidan tadqiqotda qiyosiy tahlil usulidan ham foydalanildi. Bu orqali O'zbekistonning moliyaviy muhitini Malayziya, Indoneziya va Birlashgan Arab Amirliklari kabi islom moliyasi rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan solishtirish orqali ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlab chiqildi. Bu yondashuv O'zbekiston sharoitida islom moliyasi tamoyillarini moslashtirishning nazariy imkoniyatlarini baholash imkonini berdi. Shuningdek, tizimli yondashuv usuli yordamida islom moliya institutlarining iqtisodiyotdagi o'rnini va ularning milliy moliya tizimiga integratsiyalashuv mexanizmlari nazariy asosda ko'rib chiqildi. Bu usul orqali bank tizimi, soliq siyosati va davlat moliyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Maqolada ilmiy mantiqiy tahlil usulidan foydalanilib, islom moliyasi tamoyillarining - foiz (ribo)ning taqiqlanishi, adolat va shaffoflik tamoyillari, tavakkalchilikning teng taqsimlanishi kabi asosiy qoidalari tizimli tarzda o'rganildi. Mazkur tamoyillarni milliy qonunchilik bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari nazariy nuqtai nazardan baholandi.

Metodologik jihatdan ishning asosiy xususiyati - u nazariy tahlilga asoslangan bo'lib, amaliy tajriba yoki statistik ma'lumotlarga tayanilmagan. Maqolada mavjud ilmiy manbalarni sintez qilish, turli olimlarning yondashuvlarini tahlil qilish va umumlashtirish orqali yangi nazariy qarash shakllantirishga e'tibor qaratilgan. Natijada, metodologiya bo'limi tadqiqotning nazariy asosini mustahkamlab, islom moliyasi tamoyillarini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini ilmiy nuqtai nazardan baholashga xizmat qildi.

Muhokama.

Islom moliyasini O'zbekistonda joriy etish masalasi hozirgi davrda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, moliyaviy inklyuziya darajasining oshishi hamda aholi ishonchini mustahkamlash nuqtayi nazaridan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, islom moliya tizimi nafaqat



diniy tamoyillarga asoslangan moliyaviy faoliyat shakli, balki iqtisodiy adolat, shaffoflik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga tayanadigan muqobil iqtisodiy model sifatida ham e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston sharoitida islom moliyasini joriy etish jarayonida bir nechta muhim omillar ajralib turadi. Birinchidan, mamlakatda aholining katta qismi musulmonlar bo'lgani sababli, foizsiz moliya tizimiga nisbatan ijtimoiy ishonch yuqori darajada. Bu holat islom moliya institutlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun sotsiologik zamin yaratadi. Ikkinchidan, davlat tomonidan so'nggi yillarda moliya sektorida raqamlashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va yangi bank modellarini sinovdan o'tkazish siyosati olib borilayotgani islomiy moliyaga keng imkoniyatlar yaratadi.

Kurbonova M. tomonidan keltirilgan SWOT - tahlil natijalariga ko'ra, islom moliyasi tizimining kuchli tomoni - moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi, inqiroz davrida risklarni kamaytirish qobiliyatiga ega ekanligidir. Shu bilan birga, tizimning zaif tomoni sifatida - O'zbekiston moliya bozorida islomiy mahsulotlar bo'yicha normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada shakllanmagani ko'rsatiladi. Ahmadjonov O. ham o'z tadqiqotida islomiy banklar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik mexanizmlarining yo'qligi bu tizimni keng joriy etishga to'sqinlik qilayotganini ta'kidlaydi.

Islomovna T. D. esa O'zbekistonda islom moliyasining rivojlanishini bosqichma-bosqich amalga oshirish zarurligini qayd etadi. Unga ko'ra, avvalo aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, shuningdek, davlat moliya siyosatini islom moliyasi tamoyillari bilan muvofiqlashtirish kerak. Bunday yondashuv islom moliyasi institutlarining uzoq muddatli va barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Muhokama jarayonida shuningdek, Anora K. va Shavkatbek E. tomonidan ilgari surilgan innovatsion iqtisodiyot va raqamli transformatsiya haqidagi g'oyalar ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalar asosida



islomiy moliyaviy xizmatlarni avtomatlashtirish, onlayn platformalar orqali omonat, investitsiya va mikroqarz mahsulotlarini taklif etish iqtisodiyotning raqamli integratsiyasiga katta hissa qo'shadi.

Turdaliyev R. esa islom moliyasining zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilib, xalqaro tajribaga asoslanib, O'zbekistonda ham "sukuk" (islomiy obligatsiyalar), "takaful" (islomiy sug'urta) va "mudaraba" (sheriklik asosidagi investitsiya) kabi moliyaviy vositalarni joriy etish orqali kapital bozorini rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi. Biroq bu jarayon huquqiy, institutsional va kadrlar bazasining yetarli tayyorgarligini talab etadi. Shuningdek, Ro'ziboyeva Z. K. tomonidan ta'kidlanganidek, islom moliyasining falsafasi inson kapitali, adolat va halollik tamoyillariga tayanadi [8]. Shu bois, O'zbekistonda islom moliyasi tizimini joriy etishda faqat bank yoki moliya muassasalari darajasida emas, balki ta'lim, biznes etikasi va davlat boshqaruvi tizimida ham moslashuv zarur.

Umuman olganda, olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda islom moliyasi tizimini joriy etish jarayonida ikki yo'nalish muhim ahamiyatga ega: birinchisi - qonunchilik bazasini xalqaro standartlarga moslashtirish, ikkinchisi - aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali yangi tizimga bo'lgan ishonchni mustahkamlash.

Natijalar va tahlillar.

Izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, islom moliyasi tizimini O'zbekiston iqtisodiyotiga joriy etish bir necha bosqichli yondashuvni talab qiladi. O'tkazilgan nazariy tahlillar asosida aniqlanishicha, mamlakatda foizsiz moliya tamoyillarini amalga oshirish uchun iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional sharoitlar asta-sekin shakllanmoqda. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa uch asosiy yo'nalishga e'tibor qaratish lozim: normativ-huquqiy baza, moliya bozori infratuzilmasi va aholining moliyaviy madaniyat darajasi.



Birinchidan, normativ-huquqiy asoslar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda hozircha islom moliyasi to'g'risida alohida qonun mavjud emas. Biroq "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun hamda "Kapital bozorini rivojlantirish strategiyasi" kabi hujjatlarda ayrim tamoyillar islomiy moliya mexanizmlariga mos keladi. Ahmadjonov O. ta'kidlaganidek, bu yo'nalishda Bosh prokuratura, Moliya vazirligi va Markaziy bank tomonidan islomiy moliya institutlarini huquqiy tartibga soluvchi normativ hujjatlar ishlab chiqilishi zarur.

Ikkinchidan, moliyaviy infratuzilma tahlili natijasida ma'lum bo'ldiki, O'zbekistonda ayrim banklar islomiy moliyaga o'xshash mahsulotlarni sinov tariqasida qo'llay boshlagan. Masalan, "Ipak Yo'li" bankida "foizsiz depozitlar" va "tavakkalchilik asosida sheriklik" xizmatlari mavjud. Bu kabi tajribalar islom moliyasini milliy tizimga moslashtirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Biroq Turdaliyev R. fikricha, bu jarayon hali to'liq islomiy tamoyillar asosida emas, balki an'anaviy bank modellaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda.

Uchinchidan, aholining moliyaviy madaniyat darajasi masalasi ham muhim omil sifatida qayd etildi. Islomovna T. D. o'z tadqiqotida O'zbekistonda islom moliyasi to'g'risida aholining xabardorlik darajasi pastligini, bu esa tizimni keng joriy etishda muayyan to'siq bo'lishini ta'kidlaydi. Shu bois, islomiy bank mahsulotlarini tushuntiruvchi o'quv dasturlari, ommaviy axborot vositalarida maxsus ko'rsatuvlar va raqamli platformalar orqali tushuntirish ishlarini yo'lga qo'yish zarur.

Izlanishlar natijalari, shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganish orqali ham muhim xulosalarni aniqladi. Malayziya, Indoneziya, BAA va Saudiya Arabistonida islom moliyasi tizimi milliy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan. Bu mamlakatlarda davlat tomonidan maxsus "Shariat kengashlari", "Islomiy bank nazorati organlari" tashkil etilgan va ular barcha moliyaviy operatsiyalarni diniy tamoyillar asosida muvofiqlashtiradi. O'zbekiston uchun ushbu tajriba dolzarb



bo‘lib, u ham shariatga mos nazorat mexanizmlarini yaratish orqali tizimning ishonchliligini ta’minlashi mumkin.

Kurbonova M. tomonidan o‘tkazilgan SWOT-tahlil natijalariga asoslanib aytish mumkinki, O‘zbekiston islom moliyasini joriy etish imkoniyatlari jihatidan “kuchli tomonlar”ga ega: aholining diniy qadriyatlarga sodiqligi, iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining yuqoriligi va hukumatning ochiq iqtisodiy siyosati bunga asos yaratmoqda. Shu bilan birga, “xavf omillari” sifatida huquqiy bo‘shliqlar, kadrlar yetishmasligi va xalqaro standartlarni bilmaslik qayd etilgan.

Tahlil natijalaridan yana biri shundaki, islom moliyasi tizimini joriy etish O‘zbekiston uchun faqat diniy yoki moliyaviy masala emas, balki iqtisodiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash omilidir. Bu tizim orqali kichik biznes va qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni oshirish, ijtimoiy mas’uliyatli loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Umuman olganda, nazariy tahlillar islom moliyasi O‘zbekiston uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochishini ko‘rsatdi. Biroq bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun huquqiy, institutsional va ma’rifiy islohotlarni parallel ravishda olib borish zarur. Natijalar shuni isbotlaydiki, islom moliyasi tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish milliy moliya sektorining barqarorligi va ijtimoiy adolat tamoyillarini kuchaytiradi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, islom moliyasi O‘zbekiston moliya tizimida muqobil, barqaror va ijtimoiy mas’uliyatga asoslangan model sifatida shakllanish imkoniyatiga ega. Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tizimning joriy etilishi orqali milliy iqtisodiyotning strategik barqarorligi oshadi, investitsion muhit yaxshilanadi va aholining moliyaviy ehtiyojlariga moslashgan yangi moliyaviy xizmatlar shakllanadi. Shu tariqa, islom moliyasining mamlakat moliya tizimida integratsiyasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy manfaatlarni ham qamrab oladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kurbonova M. ISLOM MOLIYASINING JAHON MOLIYAVIY TIZIMIDAGI O'RNI: SWOT TAHLILII YONDASHUVI //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2025. – T. 47. – №. 4. – С. 213-215.
2. Islomovna T. D. O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINING RIVOJLANISHI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2025. – T. 3. – №. 28. – С. 147-149.
3. Anora K., Shavkatbek E. INNOVATIVE ECONOMY AND DIGITAL TRANSFORMATION: NEW OPPORTUNITIES AND CHALLENGES //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 37. – №. 4. – С. 175-180.
4. Shavkatbek E. THE ROLE OF STRATEGICALLY IMPORTANT SECTORS IN THE NATIONAL ECONOMY //Modern education and development. – 2025. – Т. 19. – №. 3. – С. 631-636.
5. Ahmadjonov O. O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYA TIZIMINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI //QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2022. – Т. 5. – С. 47-51.
6. Turdaliyev R. BOZOR IQTISODIYOTIDA ISLOM MOLIYASINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI //Наука и инновация. – 2024. – Т. 2. – №. 39. – С. 33-35.
7. Пахлавонбек Е., Эгамбердиев Ш. РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ В УСЛОВИЯХ ПРОЦЕССА ГЛОБАЛИЗАЦИИ //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 22. – С. 186-190.
8. Ro'ziboyeva Z. K. ISLOMDA OMONAT, FOIZ VA BANK TIZIMI: LOYIHA BOSHQARUVIGA YONDASHUVLAR //ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ. – 2025. – №. 63-3 (том 2).